



**CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ASARINI TASVIRIY SAN‘AT
BILAN BOG‘LAGAN HOLDA O‘QITISHDA SAVOL VA
TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH**

Avezbayeva Jamila Muxtarbayevna,
Berdaq nomidagi QQDU assistent-o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207549>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarini fanlararo integratsiyadan foydalangan holda o‘rganilganda darsning yanada qiziqarliroq o‘tishi haqida fikr va mulohazalar bildirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Milliy ma’naviyatimiz, ma’rifatparvarlik adabiyoti, obrazlar, ijobiy qahramonlar, munozara usuli, klaster, go‘zallik timsoli.

Badiiy adabiyot – cheksiz olam. Ijod ahli har doim o‘z kechinmalarini badiiy aks ettirishga harakat qilib kelgan. Jamiyat rivoji uning adabiyoti takomiliga qarab belgilanadi.

Ertanggi kelajagimiz bo‘lgan, o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy ma’naviyatimizni anglash ruhida tadbiralashda esa adabiyot asosiy qurol vazifasini o‘taydi. U millat taqdirini har jihatdan tasvirlab bera oladi. Ma’rifatparvarlik adabiyotida ayollar timsoli o‘ziga xos real tasvirlangan. Bunda o‘sha davr tuzumi qattiq qoralanib, ayollarni ilm-ma’rifatga, jaholat botqog‘idan chiqarishga da’vat etiladi. Xususan “Kecha va kunduz asarida Zebi timsoli hamda “Dahshat” asarida Unsin obrazlarida o‘sha davr ayollari erksizligi ochib beriladi. “Kecha va Kunduz” romanida xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan barcha ziddiyatlar, adibning bor orzulari ifodalangan. Unda mehnatkash xalq, xususan, xotin-qizlarning og‘ir, kulfat-u mashaqqatlarga to‘la hayoti jonli voqealar, yorqin obrazlar vositasida ta’sirli va ishonarli tasvirlangan. Asardagi asosiy ijobiy qahramonlardan biri go‘zal va xushovoz, sodda va huquqsiz Zebi timsoli fikrimizni dalillaydi.(7,170)

Savol qo‘yiladi: Yana siz bilgan qaysi asarlarda ayollarning, yoshgina qizlarning ayanchli taqdirlari tasvirlangan?

O‘quvchilarning fikrlari tinglanadi. Munozara usulida o‘quvchilar bir birining fikrlariga munosabat bildiriladi. Bu tarzda o‘quvchilarning qanchalik ko‘p asar o‘qiganligi va qanchalik tushunganligi tinglab boriladi. Dars oxirida esa o‘qituvchi umumiy qilib o‘z fikrini bildiradi.



Zebining sud jarayonidagi muloqotida uning xarakteri va ruhiyati nihoyatda tabiiy va jonli ochib berilgan. U shu qadar sodda va beg‘uborki, hattoki sud qamoq degan tushunchalar haqida tasavvurga ham ega emas. Bu sodda musulmon ayol sudda, qora kursida o‘tirganda ham hukm, jazo qanday bo‘lishini emas, balki butunlay boshqa narsani – musulmonlik, shariat qoidalariga shak keltirmaslikni o‘ylaydi. Parchada qo‘llangan “nomahram” so‘zi diniy ma‘noni ifodalovchi so‘z bo‘lib, yaqin qarindoshlik aloqasi bo‘lmaganligi sababli bir-birini ko‘rish yoki bir-biriga ko‘rinish man etilgan, lekin nikohlanishi mumkin bo‘lgan erkak va ayol (bir biriga nisbatan) zid mahram ma‘nosini anglatadi. [1, 26 b]

Topshiriq: Sodda va beg‘ubor, asarda tasvirlanganday qishloq o‘zbek qizining rasmini chizishga harakat qiling.

Rasmni chizishda asosan nimalarga e‘tibor bergan bo‘lardingiz?(tayanch so‘zlar: paranji, do‘ppi, 16-17 yoshlardagi qiz, qora qosh, qora ko‘z, sochlar uzun, mayda o‘rilgan, mahsi-kavush, atlas ko‘ylak yoki chopon) Bu tarzda tasviriy san‘at va milliy liboslar bilan bog‘laymiz)

Asarda keltirilgan dialoglarda o‘zbek ayollariga xos bir qancha fazilatlar aks etgan. Keltirilgan jumalarda muallif Zebi timsolida oz‘bek ayollariga xos er-xotin munosabatlarida turmush o‘rtog‘iga itoatkorlikni, uning barcha gaplarini so‘zsiz bajarishi ko‘rsatiladi.

- Tur, hay! – dedi Zebiga
- Zebi yotgan joyidan turib fonarni balandlatdi.
- Dasturxonni yoz! Yegulik narsang bormi?
- Ha, kosada osh bor.
- Ber, buyoqqa.

Zebi erining mast ekanligini bilsada, uning ovozdagi bu g‘ayritabiiy qo‘rslik va qattiqqo‘llikka hayron bo‘ldi, boshini ko‘tarib, unga tikildi, “o‘zimi, boshqami?” degandek.....

- Nimaga menga qaraysan? Yo, mastmisan, sintaloq? – dedi mingboshi.
- Zebi indamasdan dasturxonni yoyib, oshni qo‘ydi”. [2, 294-295 bb]

Akbaralining bu nigohdan jahli chiqdi, chunki mavjud madaniy makonda erkakning ko‘ziga tik qarash, tik boqish unga nisbatan hurmatsizlik, betgachoparlikni bildiradi. Biroq Zebi hurmatsizlik yuzasidan emas, balki hayratdan unga tikilib qolgandi.

Topshiriq. Mingboshi obraziga ta‘rif bering klaster asosida (ona tili fani bilan bog‘laymiz)

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



O‘quvchilar: qo‘pol, gavdali, qovog‘i osilgan, mast, manman, 60 yoshlarga borib qolgan, sersoqol, qo‘rs tarzida davom etishadi.

Hech bir millatda uchramaydigan, faqatgina o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan xususiyatlaridan yana biri bu ularning kundoshlari bilan bir uyda ahil va bir-biriga xushmuomala bo‘lib yashashidir. Bu maqomdagi personajlar munosabati nasrimizda ilk marta A.Cho‘lpon tomonidan tasvirlanadi. Buni biz Hadichaxon va Poshshaxon o‘rtasidagi suhbatda kuzatishimiz mumkin. (“Dahshat” hikoyasida esa Nodirmohbegimning Unsinga jonkuyarligida ko‘rishimiz mumkin).

-Ha, eringiz shaharda qolib ketdi. Bilmadim, yana bitta-yarimtaga ko‘ngli tushdimikin?

- Nazarlari qursin, u kishining! Hadeb tusha berar ekan-da.

- Siz-biz “tushmasin” deganimiz bilan tushmay qolarmidi? Xudo o‘zi tushadigan qilib yaratgan ekan-da.

- Xudovandi Karim bu erkaklarni muncha yaxshi ko‘rar ekan, a....

- O‘zimizdan qiyos-da... Oramizda erkakni yaxshi ko‘rmaydigan kim bor?...

Nondan oling! Qiyomga qarab o‘tirsangiz-chi...” [2, 50b]

Kundosh so‘zi eskirgan so‘zlardan biri bo‘lib, bir er nikohidagi bir necha xotinga nisbatan qo‘llaniladi [3, 43 b]

Kundoshlik munosabati islom diniga mansub davlatlar uchun, jumladan XX asr boshlarida O‘zbekistonda ham tabiiy hol hisonlangan. Suhbatdan anglashiladiki, kundoshlar bir-birlarini juda yaxshi tushunadilar. Garchi bir-birlarini yoqtirmasada, ko‘nglidan o‘tayotgan kechinmalarini sir saqlab, bir-birlariga iliq munosabatda bo‘ladilar. Bir dasturxon atrofida o‘tirib, bir-biriga mehmondo‘stlik ko‘rsatadilar.

Muallif Zebi taqdirida, Razzoq so‘fi va Qurvonbibi taqdirida butun bir xalqning davrga xos fojiali hayotini yaqqol ko‘rsatib beradi [4, 411b]

Cho‘lpon asarning boshidan oxirigacha Zebi xarakteridagi samimiyatni, ochiqlikni eng muhim belgi sifatida ko‘rsatadi. Zebida o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan jihatlar jamlangan bo‘lib, u poklik, tozalik, go‘zallik va navqironlik timsoli hisoblanadi. Uning ko‘nglida atrofdagilarga, dugonalariga, bahorga barcha insonlarga va barcha narsalarga muhabbat bor. U hali hayotning achchiq-chuchugini ko‘rmagan. Uning beg‘ubor qalbi dunyoda razolat va qabihlik, yomonlik va yovuzlik borligini sig‘dira olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo‘shjonov.M. Abdulla Qahhor mahorati. -Toshkent,1984 26-bet.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



2. Абдулхамид Чўлпон Кеча ва кундуз роман Тошкент «Янги аср авлоди» 2013.
3. Каримов Наим. Чўлпон. Маърифий роман Тошкент «Шарқ» 2003.
4. Saydulla Mirzayev XX asr o‘zbek adabiyoti Toshkent “Yangi asr avlodi” 2005.

